

**BANK OMONATI SHARTNOMASI VA UNING HUQUQIY ASOSLARI**

*Qurbonova Parizoda Ural qizi*

*Termiz Davlat Universiteti Yuridik fakulteti talabasi*

*Tursunov Behruz Normurod o'g'li*

*Jinoyat huquqi va fuqarolik protsessi kafedrasi o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada bank omonati shartnomasi tushunchasi, uning huquqiy belgilari, fuqarolarning banklardagi omonatlarni himoyalash kafolatlari shuningdek xorijiy davlatlarning fuqarolik qonunchiligi haqida fikr-mulohazalar yuritilgan.

**Kalit so'zlar:** bank omonati shartnomasi, omonatchi, omonat, bank, qarzdor, kreditor, foizlar, litsenziyalash, real shartnoma, bir tarafla shartnoma, ommaviy oferta, omonat daftarchasi, jamg'arma(depozit) sertifikati, rekvizitlar.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается понятие договора банковского вклада, его правовые особенности, а также гарантии защиты вкладов граждан в банках.

**Ключевые слова:** договор банковского вклада, вкладчик, вклад, банк, должник, кредитор, проценты, лицензирование, реальный договор, односторонняя реклама, публичная oferta, депозитная книга, сберегательный (депозитный) сертификат, реквизиты.

Bank omonati shartnomasi boshqa shartnomalardan o'ziga xos xususiyatga ega hisoblanadi. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 759-moddasiga asosan "Bank omonati shartnomasi - bu bir tarafdin (omonatchidan) qabul qilib olgan yoki uning nomiga kelgan pul summasini (omonatni) qabul qilib olgan ikkinchi taraf (bank) shartnomada nazarda tutilgan shartlar asosida va tartibda omonat summasini qaytarish va unga foizlar to'lash majburiyatini oladi". Mazkur bank omonati shartnomasining huquqiy belgilari mavjud bo'lib, ular quyidagilardan iborat :

**Birinchidan** - bir tomonlama shartnoma

**Ikinchidan** - real shartnoma

**Uchinchidan** - haq evaziga tuziladigan shartnoma hisoblanadi.

Bir tomonlama shartnoma deyishimizga sabab, bir tomonda huquq, boshqa tomonda esa faqat majburiyat bo'ladi. Misol uchun bankka omonat qo'ygan omonatchi bankdan faqat omonat puli summasini va u bo'yicha foizlarni qaytarishni talab qilish huquqiga ega bo'lsa, bankda esa omonat puli summasini va u bo'yicha foizlarni to'lash majburiyati bo'ladi. Shuningdek, bank omonati shartnomasi konsesual emas, balki real shartnoma hisoblanadi. Bankka omonatchi tomonidan quyilgan omonat pul summasi kelib tushgan kundan boshlab shartnomasi tuzilgan hisoblanadi. **Omonat (depozit) -**

talab qilinishi bilanoq yoki to'lovni amalga oshiruvchi shaxs bilan to'lovni oluvchi shaxs yoxud ularning qonuniy vakillari o'rtasida kelishilgan muddatda foizlar yoki ustama haq to'lagan holda yoxud bunday to'lovlarsiz hammasini qaytarib berish sharti bilan topshirilgan pul summasi hisoblanadi. Xususan, bank omonati shartnomasi ommaviy shartnoma hisoblanadi, ya'ni bank ommaviy oferta e'lon qilgandan so'ng, shartnoma tuzish istagini bildirgan har bir fuqaro bilan shartnoma tuzishi mumkin.. Bank omonat shartnomasining subyektlari asosan omonatchi fuqarolar va yuridik shaxslar hisoblanadi. Pul mablag'larini omonatga saqlash uchun faqat qonun hujjatlarida belgilangan tartibda litsenziyaga ega bo'lgan banklar orqali amalga oshiriladi.

2019-yil 5-noyabrda qabul qilingan "Banklar va bank faoliyati to'g'risida" gi 580-sonli O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq "bank – tijorat tashkilot hisoblanib, quyidagi faoliyat turlari amalga oshiradigan yuridik shaxdir:

- Yuridik va jismoniy shaxslardan omonatlarni qabul qilish, hamda investetsiyalash uchun foydalanish;
- To'lovlarni amalga oshirish.

Shuningdek, mazkur Qonunning 10-moddasiga muvofiq " Banklar Markaziy bankda ro'yxatga olingan paytdan boshlab yuridik shaxs maqomiga ega bo'ladi. Ro'yxatga olish tartibi va shartlari Markaziy bank tomonidan belgilanadi. Ro'yxatga olish bilan bir vaqtda banklarga bank operatsiyalarini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziya topshiriladi. Banklarning filiallari Markaziy bankda ro'yxatga olinadi va o'z faoliyatlarini ularni tashkil etgan bankka berilgan litsenziya asosida amalga oshiradilar". Belgilangan tartibda litsenziyaga ega bo'lmagan banklar tomonidan pul mablag'lari qabul qilinganda, omonatchi darhol omonat pul summasini qaytarib berishni va O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 327-moddasida nazarda tutilgan foizlarni to'lashni talab qilish huquqiga ega bo'ladi. Agar bunday shaxs yuridik shaxsning pul mablag'larini qabul qilib olgan bo'lsa, Fuqarolik Kodeksining bitimlarning haqiqiy bo'lmasligining asoslari va oqibatlariga doir qoidalar qo'llaniladi. Shuningdek, agar Fuqarolik Kodeksida boshqacha qoida belgilangan bo'lmasa, 760-moddaga asosan, kim bo'lishidan qat'y nazar, fuqarolar va yuridik shaxslarning pul mablag'larini:

1) omonat saqlovchilarga omonatni talab qilishi bilanoq olish va omonatchining ushbu qoidalarda nazarda tutilgan boshqa huquqlarini amalga oshirish imkoniyatini bermaydigan veksellar yoki boshqa qimmatli qog'ozlar berish;

2) ularga g'ayriqonuniy chiqarilgan deb topilgan aksiyalar va boshqa qimmatli qog'ozlarni sotish yo'li bilan omonatlarga jalb qilish hollatlariga nisbatan qo'llaniladi.

Bank omonati shartnomasi yozma shaklda tuzilishi kerak. Yozma shaklga rioya qilinganlikning muhim belgilaridan biri - bankka omonat pul summasining qo'yilganligi bo'yicha omonat daftarchasi, jamg'arma (depozit) sertifikati yoki bank tomonidan omonatchiga berilgan, shuningdek qonunga muvofiq qo'llaniladigan ish muomilasi odatlarida va bunday hujjatlar uchun belgilangan talablarga javob beradigan tasdiqlangan hujjatlardir. Asosan bank omonati shartnomasining yozma shakliga rioya qilmaslik, bunday shartnomaning haqiqiy emasligiga olib keladi. Bank omonati shartnomasi ikki turga bo'linadi, ya'ni, omonatni talab qilinishi bilanoq berish (talab qilgungacha saqlanadigan omonat) yoki omonatni shartnomada belgilangan muddat tugaganidan keyin qaytarish (muddatli omonat) sharti bilan tuziladi. Omonatni shartnomada belgilangan muddat tugaganidan keyin qaytarish (muddatli omonat) asosan omonatchi va bank o'rtasida o'zaro kelishgan holda muddat belgilanadi va bu muddat tugamasdan omonatchi omonat pul summasini qaytartib olishning huquqiy oqibatlari ham mazkur shartnomada keltiriladi. Xususan, Fuqarolik Kodeksining 762-moddasiga asosan bank omonati subyektlari muddat tugagunga qadar yoxud bank omonati shartnomasida ko'rsatilgan boshqa holatlar yuz bergunga qadar omonatni qaytarib berishni talab qilish niyatida bo'lsa, o'zining bu niyati haqida bankni kamida bir oy oldin xabardor qilishi shart. Chunki bank omonat pul summasini omonatchiga qaytarishi uchun uning hisobida, ya'ni aboratida ortiqcha pul summasi bo'lishi kerak.

Bank omonati shartnomasiga muvofiq ushbu shartnoma uchinchi shaxslarni manfaatlarini ko'zlab tuzilishi mumkin. Misol uchun, ota-ona o'z farzandining foydasiga bankka omonat pul summasini qo'yishlari mumkin. Uchinchi shaxs foydasiga bank omonati shartnomasi tuzilayotganda quydagilar bo'lishi shart;

- Nomiga omonat qo'yilayotgan fuqaroning ismi
- Yuridik shaxsning nomiga qo'yilayotgan bo'lsa mazkur yuridik shaxsning nomi ko'rsatilishi lozim.

Nomiga omonat pul summasi qo'yilgan uchinchi shaxs undan voz kechganda, uchinchi shaxs nomiga bank omonati shartnomasi tuzgan shaxs omonatni qaytarib berishni talab qilib olishga yoki omonatga qo'yilgan pul summasini o'z nomiga o'tkazishga haqli hisoblanadi. Bank omonati shartnomasi tuzilganligini tasdiqlash uchun fuqarolarga banklar tomonidan omonat daftarchasi taqdim etiladi. Taraflarning kelishuvida boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa, fuqaro bilan bank omonati shartnomasi tuzish hamda uning hisobvarag'iga omonat bo'yicha pul mablag'larini kiritib qo'yish omonat daftarchasi bilan tasdiqlanadi.

**Omonat daftarchasi** - bankning ma'lumotlarini saqlab qolish, hisob-kitob va moliyaviy jarayonlarni boshqarish uchun ishlatiladigan ma'lumotlar bazasi hisoblanadi. Banklar omonat daftarchasi bo'yicha bankning moliyaviy operatsiyalarini avtomatlashtirish, ma'lumotlarni to'plab olish va ulardan foydalanishni

osonlashtirishga yordam beradi. Shuning uchun taqdim etuvchiga pul to'lanadigan omonat daftarchasi bank omonati shartnomasi tuzilganligi va fuqaro hisobvarag'iga pul mablag'lari kiritilganligini yozma ravishda tasdiqlaydigan hujjat bo'libgina qolmasdan, huquq beruvchi ahamiyatga ham egadir. Omonat daftarchasi quyidagi ma'lumotlarni o'z ichiga oladi;

- 1) Mijozlar ma'lumotlari
- 2) Omonat pul summolari
- 3) Hisob-kitob ma'lumotlari.

Bank tomonida omonat daftarchasi taqdim etilganda omonatga qo'yilgan pul summolari qaytarish va unga foizlar to'lash topshirig'larni oladi. Agar egasi yozilgan omonat daftarchasi yo'qolgan yoki yaroqsiz holatga kelib qolgan bo'lsa, bank omonatchining arizasiga muvofiq unga yangi omonat daftarchasi beradi. Agar omonat daftarcha egasiga daftarchani qonunsiz ravishda egallab olgan boshqa shaxs ma'lum bo'lsa, unga nisbatan vindikatsion da'vo qilish yo'li bilan talab qilib olishga haqlidir.

**Omonat (depozit) sertifikat** – egasining nomi yozilgan qimmatli qog'oz bo'lib, bankka qo'yilgan omonat summasini ham, omonatchining (sertifikat saqlovchining) belgilangan muddat tamom bo'lganidan keyin sertifikatni bergan bankda yoki ushbu bankning istalgan filialida omonat summasini va sertifikatda ko'rsatib qo'yilgan foizlarni olish huquqini tasdiqlovchi hujjat ham hisoblanadi. Omonat daftarchasidan farqli ravishda, omonat (deposit) sertifikat bank omonat shartnomasi rasmiylashtirishda universal vosita hisoblanadi, u fuqarolar va yuridik shaxslar bilan bo'ladigan o'zaro munosabatlarda qo'llaniladi. Fuqarolar omonat sertifikatiga ega bo'lishlari mumkin, yuridik shaxslar esa depozit sertifikatiga ega bo'lishadi. Depozit sertifikat omonat sertifikatiga o'xshaydi, ammo unga faqat yuridik shaxslar egalik qilishlari mumkin. Bank omonati sertifikatlari, bankning omonat shartlariga muvofiq mablag'larni muddatli ravishda saqlash imkoniyatlarini beradi. Shuningdek, bank omonati sertifikatlari mijozlar uchun moliyaviy imkoniyatlar yaratishda va mablag'larini moliyaviy daromad olishda qulayliklarni ta'minlashda ishlatiladi. Bank omonati sertifikatlari quyidagi xususiyatlarga ega bo'lishi mumkin;

- a) Muddat
- b) Foiz darajasi
- c) Omonat miqdori
- d) Xavfsizlik.

“Fuqarolarning banklardagi omonatlarini himoyalash kafolatlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga asosan fuqarolarning bankdagi omonatlarini saqlash kafolatlanadi. Ushbu qonunning asosiy maqsadi – O'zbekiston Respublikasi

fuqarolari, chet ellik fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning O'zbekiston Respublikasi banklaridagi omonatlari himoyalanihini ta'minlash sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iboratdir. Fuqarolarning bankdagi omonatlarini kafolatlash uchun kafolatlash fondi tuziladi. Fond faoliyatining maqsadi bankning bank operatsiyalarini o'tkazish huquqini beruvchi litsenziyasi O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan chaqirib olinganda fuqarolarning banklardagi omonatlari bo'yicha haq to'lanishini kafolatlashdan iboratdir. Fond yuridik shaxs hisoblanadi va banklar bilan yozma ravishda tuziladigan bitimlar asosida faoliyat yuritadi. Fuqarolarning omonatlari bo'yicha haq to'lash bankning qonunchilikda belgilangan tartibda Fond mablag'lari hisobidan to'liq hajmda amalga oshiriladi. Agar bank omonatchiga nisbatan kreditor sifatida ham ish yuritgan bo'lsa, omonatlar bo'yicha haq to'lash miqdori omonatchiga to'lanishi lozim bo'lgan summasi o'rtasidagi farq sifatida belgilanadi. Fuqarolarning banklardagi chet el valyutasidagi omonatlari bo'yicha haq to'lash ushbu Qonun bilan belgilangan tartibda va miqdorlarda, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan milliy valyutada amalga oshiriladi.

Xususan, bank omonati shartnomasi bo'yicha Fransiya fuqarolik qonunchiligini oladigan bo'lsak, ushbu davlat Fuqarolik kodeksida bank omonati shartnomasi bo'yicha alohida bir bobi mavjud emas, faqatgina qarz hamda omonatga saqlash shartnomalari bo'yicha bobining, ma'lum bir moddasida keltirib o'tilgan. Ammo, Fransiya fuqarolik qonunchiligida bank omonati bo'yicha alohida qonunchilik qabul qilingan bo'lib, ushbu qonunchilikda kengroq ma'lumotlar keltirib o'tilgan. Fransiyadagi banklar to'g'risidagi qonunlarga misol qilib quyidagilarni aytishimiz mumkin:

- 1) "Fransiya Moliya va Moliyalashtirish to'g'risida" gi qonuni
- 2) "Fransiya Banklar Kodeksi"
- 3) "Fransiya Moliya Kodeksi"

I. Birgina "Fransiya Moliya va Moliyalashtirish to'g'risida"gi qonunini oladigan bo'lsak, bu qonun banklar bilan mijozlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soladi. Xususan, bank omonatlari, omonat miqdori, foizlar, moliyaviy tahdidlar, omonatlarni bekor qilish tartibi va boshqa shu kabi shartlarni o'z ichiga oladi. Ushbu qonun bo'yicha quyidagilar belgilangan:

a) muddatlar - bank omonatlari uchun muddatlar, omonat shartnomasi orqali belgilanadi, mijozlar va bank omonatlari orasida kelishilgan muddatlar aniq ravishda ko'rsatilishi kerak;

b) foizlar - bank omonati uchun belgilangan foizlar omonat shartnomasida ko'rsatiladi. Foizlar omonat muddatiga, omonatning turi va mijozning tanlagan shartlarga bog'liq ravishda ko'rsatilishi aniqlanadi.

Shuningdek, bank omonatlari uchun moliyaviy tahdidlarni belgilashga oid tartibni ham o'z ichiga oladi. Quyidagi asosiy usullar moliyaviy tahdidlarni belgilashda qo'llaniladi:

I) kapital talablaning belgilanishi - bunda banklarga minimal kapital talablar va kapitalning qaysi turlarda va numa uchun ishlatilishi kerakligini belgilaydi;

II) xavfsizlik rezervlarining saqlanishi - banklar moliyaviy tahdidlarni kamaytirish maqsadida xavfsizlik rezervlarini saqlanishi talab qilinadi.

III) moliyaviy ko'rsatkichlar va hisobotlar - banklar, moliyaviy tahdidlarni belgilashga oid moliyaviy ko'rsatkichlar va hisobotlar, bankning moliyaviy holatini, likvidlikni va boshqa moliyaviy ma'lumotlarni ifodalaydi.

Germaniya davlatida esa Fuqarolik kodeksiga muvofiq omonatlarni taklif qilishadi. Germaniyadagi banklarning omonatlarini tartibga soluvchi qonunchilik bazasi BGB( Burgerliches Gesetzbuch)ga kiritilgan. Germaniyadagi banklar tomonidan taklif qilinadigan omonatlar odatda quyidagi shakllarda bo'ladi;

1) Depozit hisobvaraqlari - banklar o'z mijozlariga depozit hisobvaraqlari orqali pul mablag'larini kiritishlari va yechib olish imkoniyatini taklif etadilar;

2) Jamg'arma hisoblari - omonat hisoblari mijozlarga o'z daromadlarini saqlash va boshqarish imkoniyatini beradi;

3) Hisoblarni tekshirish - hisoblarni tekshirish mijozlarga kundalik operatsiyalarni amalga oshirish imkonini beradi.

4) Omonat sertifikatati - banklar mijozlarga ma'lum muddatga sarmoya kiritishhga undash uchun omonat sertifikatlarini taklif qilishlari mumkin. Ushbu sertifikatlar bir fozi stavkasi yoki daromadni taklif qiladi va ma'lum bir muddat uchun qulflanadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, omonat shartnomasi banklar bilan mijozlar o'rtasida kelishilgan va imzolangan ommavi shartnoma hisoblanadi. Ushbu shartnomada omonat muddati, foydalanish foizlari, to'lovlar tartibi va boshqa shartlar kiritiladi. Shartnomada omonatga doir huquqlar va majburiyatlarni qayd etiladi. Huquqiy asoslar esa davlat qonunlariga asoslanadi va omonat sohasidagi vazifalarni tartibga soladi. Shu sababli, har bir mamlakatda bank omonati shartnomasi huquqiy qoidalarga asoslanadi. Omonat shartnomasining tuzilishi davlat qonunlari va bankning mavjud qoidalariga muvofiq amalga oshiriladi. Ba'zi bir umumiy shartlar mavjud bo'lib ular quyidagilardir:

- 1) Omonat miqdori
- 2) Omonat muddati
- 3) To'lov shartlari
- 4) Foydalanish foizi
- 5) Taraflarning huquq va majburiyatlari
- 6) Omonatni bekor qilish.

Shuningdek, Fransiya va Germaniya davlatlarining fuqarolik qonunchiligida asosan Fransiyada bank omonati shartnomasi bo'yicha alohida qonunchilik asosida amalga oshiriladi. Ularni fuqarolik kodeksida alohida bob sifatida kiritilmagan. Ammo Germaniya davlatida esa Fuqarolik kodeksida keltirib o'tilgan. Ushbu davlatlarning fuqarolik qonunchiligi bilan bizning fuqarolik qonunchiligimizdagi asosiy farqi Fransiya davlatida alohida qonunchilik bilan tartibga solinishi bo'lsa, Germaniya davlati bilan esa asosiy qoidalar deyarli bir xil, ya'ni foizlari, omonat sertifikatlari, omonat miqdori va hokazolar. Ya'na bir farqi shundaki, Germaniya davlati fuqarolik qonunchiligida jamg'arma hisobvaraqlari muddati mavjud bo'lib, minimal muddati 3oy, 6oy yoki 1yil bo'lishi mumkin, omonat sertifikatlari esa odatda 3oy davomida amal qiladi.

#### **Foydalanilgan manbalar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. Toshkent, 1996
2. Fuqarolik huquqi: Darslik. II qism Mualliflar jamoasi. – Toshkent: TDYU nashriyoti, 2019.
3. “Banklar va Bank faoliyati tog'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni O'RQ-580-son 05.11.2019
4. Fuqarolarning banklardagi omonathimoyalash kafolatlari to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni O'RQ-360-II-son 05.04.2002

#### **Internet manbalari:**

5. <https://lex.uz/acts/-2681>
6. [WWW.LEX.UZ](http://WWW.LEX.UZ)
7. <https://wikipedia.org/>